



O'rta asr islom pedagogik tafakkurida Burhoniddin Zarnujiyning o'rni va pedagogik merosining shakllanish omillari

Abduhalimova Nigora Turdali qizi –

Farg'ona davlat universiteti

“Pedagogika” kafedrası o'qituvchisi

E-mail: abduhalimovanigora90@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-4899-5759>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Burhoniddin Zarnujiyning pedagogik qarashlari hamda ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi allomaning pedagogik merosining shakllanish omillarini aniqlash va uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Tadqiqotda tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Asosiy manba sifatida “Ta'lim al-muta'allim tariq at-ta'allum” asari o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Zarnujiy pedagogik qarashlarining shakllanishida Movarounnahr ilmiy muhiti, hanafiylik mazhabining ma'rifiy an'analari hamda o'rta asr madrasalari faoliyati muhim o'rin tutganligi aniqlandi. Shuningdek, alloma tomonidan ilgari surilgan ta'lim motivatsiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy tarbiya va mustaqil ta'limga oid g'oyalar zamonaviy ta'limning shaxsga yo'naltirilganlik va uzluksizlik tamoyillari bilan uyg'un ekanligi asoslandi. Xulosa sifatida Zarnujiy pedagogik merosi milliy pedagogik qadriyatlarni rivojlantirish va yoshlarning ma'naviy kamolotini ta'minlashda muhim nazariy manba ekanligi qayd etildi.

Kalit so'zlar: Burhoniddin Zarnujiy, islom pedagogikasi, pedagogik meros, ta'lim-tarbiya, ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy tarbiya, ilm olish madaniyati, Movarounnahr, madrasalar, ma'naviy kamolot, ta'lim metodlari, pedagogik tafakkur.

Роль Бурханиддина Зарнуджи в средневековой исламской педагогической мысли и факторы формирования его педагогического наследия

Аннотация. В данной статье проанализированы педагогические взгляды Бурханиддина Зарнуджи и исторические, социальные и культурные факторы, повлиявшие на их формирование. Цель исследования заключается в выявлении факторов формирования педагогического наследия мыслителя и определении его значения для современной системы образования. В работе использованы историко-педагогический, сравнительно-аналитический и источниковедческий методы исследования. В качестве основного источника рассмотрен труд «Таълим ал-мутааллим тарик ат-тааллим». Результаты исследования показали, что важную роль в формировании педагогических взглядов Зарнуджи сыграли научная среда Мавераннахр, просветительские традиции ханафитского мазхаба и

деятельность средневековых медресе. Установлено, что идеи ученого, касающиеся мотивации обучения, взаимоотношений учителя и ученика, нравственного воспитания и самостоятельного образования, созвучны принципам личностно-ориентированного и непрерывного образования. В заключение отмечается, что педагогическое наследие Зарнуджи является важным теоретическим источником для развития национальных педагогических ценностей и духовно-нравственного воспитания молодежи.

Ключевые слова: Бурханиддин Зарнуджи, исламская педагогика, педагогическое наследие, образование и воспитание, отношения учителя и ученика, нравственное воспитание, культура получения знаний, Мавераннахр, медресе, духовное развитие, методы обучения, педагогическая мысль.

The role of Burhoniddin Zarnuji in medieval islamic pedagogical thought and the factors of the formation of his pedagogical heritage

Annotation. This article analyzes the pedagogical views of Burhoniddin Zarnuji and the historical, social, and cultural factors that influenced their formation. The purpose of the study is to identify the factors that shaped Zarnuji's pedagogical heritage and to determine its significance for contemporary education. Historical-pedagogical, comparative-analytical, and source-based research methods were employed. The primary source of the study was Zarnuji's work "Ta'lim al-Muta'allim Tariq at-Ta'allum". The findings reveal that the scientific environment of Mawarannahr, the educational traditions of the Hanafi school, and the activities of medieval madrasas played a significant role in shaping his pedagogical ideas. The study also demonstrates that Zarnuji's concepts regarding learning motivation, teacher-student relationships, moral education, and independent learning are consistent with the principles of learner-centered and lifelong education. It is concluded that Zarnuji's pedagogical heritage serves as an important theoretical foundation for strengthening national pedagogical values and promoting the spiritual and moral development of young people.

Keywords: Burhoniddin Zarnuji, Islamic pedagogy, pedagogical heritage, education and upbringing, teacher-student relationships, moral education, culture of learning, Mawarannahr, madrasas, spiritual development, teaching methods, pedagogical thought.

KIRISH

O'rta asr Sharq uyg'onish davri insoniyat sivilizatsiyasi tarixida ilm-fan, madaniyat va ta'lim taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan mutafakkirlar ilm-ma'rifat, axloqiy tarbiya va komil insonni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratganlar. Ana shunday buyuk allomalardan biri Burhoniddin Zarnujiy bo'lib, uning pedagogik qarashlari islom pedagogik tafakkurining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Burhoniddin Zarnujiyning "Ta'lim al-muta'allim tariq at-ta'allum" asari musulmon Sharqida asrlar davomida ta'lim muassasalarida qo'llanib kelgan pedagogik manbalardan biri hisoblanadi. Asarda ilmning fazilati, bilim olish metodlari, ustoz-shogird munosabatlari, ta'lim motivatsiyasi hamda axloqiy tarbiya masalalari tizimli ravishda yoritilgan [1]. Bugungi globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, ularda mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini shakllantirish hamda milliy pedagogik merosdan samarali foydalanish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi

nazardan Burhoniddin Zarnujiy pedagogik qarashlarining shakllanish omillarini o'rganish va ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqotning maqsadi Burhoniddin Zarnujiyning pedagogik qarashlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillarni tahlil qilish hamda uning pedagogik merosining zamonaviy ta'lim tizimi bilan bog'liqligini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Burhoniddin Zarnujiy merosi Sharq va G'arb olimlari tomonidan turli ilmiy yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Allomaning "Ta'lim al-muta'allim tariq at-ta'allum" asari musulmon Sharqida ta'lim va tarbiya nazariyasiga bag'ishlangan eng muhim pedagogik manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur asar asrlar davomida madrasalarda o'quv qo'llanma sifatida foydalanilib, talabalarning ilm olish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilar tomonidan ushbu asar nafaqat didaktik qo'llanma, balki ta'lim falsafasi va pedagogik etika manbasi sifatida ham baholanadi [2].

Islom pedagogik tafakkuri tarixini o'rgangan olimlardan S.H.Nasr ilm va ma'rifatning musulmon sivilizatsiyasidagi o'rnini tahlil qilib, Zarnujiy qarashlarini islom ma'rifatparvarlik an'alarining yorqin namunasi sifatida tavsiflaydi [3]. Uning fikricha, ilm olish jarayoni insonning nafaqat intellektual, balki ma'naviy kamolotiga ham xizmat qilishi lozim. Zarnujiy asarida ham aynan shu tamoyil ustuvor o'rin egallab, bilim va axloqning uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. P.K.Hitti musulmon Sharqidagi ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari tarixini o'rganar ekan, XII–XIII asrlarda Movarounnahr hududida shakllangan ilmiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi [4]. Olimning ta'kidlashicha, Buxoro, Samarqand va boshqa ilm markazlari diniy hamda dunyoviy bilimlarning rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Ana shu ilmiy-madaniy muhit Burhoniddin Zarnujiy pedagogik qarashlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham allomaning pedagogik merosi turli jihatlarida tadqiq qilingan. Xususan, ilm olish madaniyati, ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy tarbiya, ta'lim motivatsiyasi va mustaqil mutolaaning ahamiyati bilan bog'liq qarashlari o'rganilgan [5; 6]. Tadqiqotlarda Zarnujiy tomonidan ilgari surilgan pedagogik g'oyalarning bugungi ta'lim tizimi uchun ham dolzarb ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotchilar J.M.Halstead, B.J.Cook va S.Guntherlarning ilmiy ishlarida ham islom ta'limi falsafasi, bilim va tarbiyaning yaxlitligi hamda pedagogik qadriyatlar masalalari tahlil qilingan bo'lib, ularning ayrim xulosalari Zarnujiy qarashlari bilan hamohanglik kasb etadi [7; 8; 9].

Mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Burhoniddin Zarnujiyning pedagogik qarashlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, uning pedagogik merosining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy, diniy, ijtimoiy va madaniy omillar o'zaro bog'liqlikda yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, Movarounnahr ilmiy muhiti, hanafiylik mazhabining ma'rifiy an'analari hamda o'rta asr madrasalari faoliyatining alloma pedagogik konsepsiyasiga ta'siri kompleks yondashuv asosida tahlil qilishni talab etadi. Mazkur tadqiqot ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqotda tarixiy-pedagogik, qiyosiy-tahliliy, manbashunoslik va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-pedagogik metod orqali Burhoniddin Zarnujiy yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy sharoitlari hamda pedagogik tafakkur rivojlanishining o'ziga xos jihatlari o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida allomaning pedagogik qarashlari boshqa islom mutafakkirlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari bilan taqqoslandi hamda ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi.

Manbashunoslik metodi asosida Burhoniddin Zarnujiyning "Ta'lim al-muta'allim tariq at-ta'allum" asari va mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar o'rganildi. Tizimli tahlil metodi esa Zarnujiy pedagogik qarashlarining tarkibiy qismlarini, ularning o'zaro bog'liqligini va pedagogik merosining shakllanish omillarini yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida Burhoniddin Zarnujiyning “Ta’lim al-muta’allim tariq at-ta’allum” asari tanlandi. Shuningdek, islom pedagogikasi, pedagogik tafakkur tarixi, musulmon Sharqidagi ta’lim tizimi va o’rta asr madaniyatiga oid ilmiy manbalar ham o’rganildi. Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlar tahlil qilinib, umumlashtirish va tizimlashtirish usullari asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar natijasida Burhoniddin Zarnujiy pedagogik qarashlarining shakllanishiga ta’sir etgan asosiy omillar aniqlandi.

Birinchidan, XII–XIII asrlarda Movarounnahr hududida shakllangan rivojlangan ilmiy muhit allomaning dunyoqarashi va pedagogik konsepsiyasining shakllanishida muhim rol o’ynagan. Bu davrda Buxoro va Samarqand kabi ilm markazlari Sharqning yirik ma’rifat o’choqlaridan biri hisoblangan [4].

Ikkinchidan, hanafiylik mazhabining ilm-ma’rifatga asoslangan g’oyalari Zarnujiy pedagogikasining metodologik asosini tashkil etgan. Asarda ilm olishda niyatning pokligi, ustozga hurmat, sabr-toqat va odob masalalarining alohida ta’kidlanishi ushbu ta’sir natijasidir [1].

Uchinchidan, o’rta asr madrasalaridagi ta’lim amaliyoti allomaning didaktik qarashlarini shakllantirgan. Asarda ustoz tanlash, darslarni muntazam takrorlash, vaqtni samarali taqsimlash va mustaqil mutolaa qilish bo’yicha tavsiyalar berilgan bo’lib, ular o’sha davr ta’lim tajribasining nazariy umumlashtirilgan ko’rinishi hisoblanadi.

Tahlil natijalariga ko’ra, Zarnujiy pedagogik tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagicha tavsiflanadi:

1-jadval

Zarnujiy pedagogik tizimining asosiy tarkibiy qismlari

Pedagogik komponent	Mazmuni
Ta’lim maqsadi	Shaxsning ilmiy va axloqiy kamolotini ta’minlash
Ta’lim motivatsiyasi	Ilm olishni ma’naviy va ijtimoiy taraqqiyot vositasi sifatida anglash
Ta’lim metodlari	Takrorlash, munozara, mutolaa va kuzatish
Ustoz-shogird munosabatlari	Ta’lim samaradorligini belgilovchi pedagogik hamkorlik
Axloqiy tarbiya	Bilim va odobning uzviy birligi
Mustaqil ta’lim	Bilimlarni mustahkamlash va uzluksiz rivojlantirish

Natijalar Zarnujiy pedagogik qarashlari zamonaviy kompetensiyaviy ta’lim, uzluksiz ta’lim va shaxsga yo’naltirilgan pedagogika tamoyillari bilan muayyan darajada uyg’un ekanligini ko’rsatdi. Olingan natijalar Burhoniddin Zarnujiyning pedagogik qarashlari o’z davri uchun ilg’or xarakterga ega bo’lganligini tasdiqlaydi. Alloma ta’lim jarayonida bilimning o’zidan ko’ra uni egallash usullariga katta e’tibor qaratadi. Shu jihatdan uning asari pedagogik metodika rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Zarnujiy ta’lim samaradorligini uch asosiy omil bilan bog’laydi: o’quvchining ichki motivatsiyasi, malakali ustoz rahbarligi va muntazam o’quv faoliyati. Bu tamoyillar zamonaviy pedagogikadagi shaxsga yo’naltirilgan ta’lim va faoliyatga asoslangan yondashuv bilan hamohangdir. Shuningdek, allomaning ilm va axloq uyg’unligi haqidagi qarashlari bugungi kunda ta’lim tizimida ma’naviy kompetensiyalarni shakllantirish masalalari bilan bog’liq holda alohida ahamiyat kasb etadi. Zarnujiy ta’limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki komil insonni tarbiyalashdan iborat ekanligini ta’kidlaydi [1].

Tadqiqot natijalari S.H.Nasrning islom sivilizatsiyasida ilm va axloqning o’zaro bog’liqligi haqidagi qarashlari bilan uyg’unlik kasb etadi. Nasr ilmni insonning ma’naviy

kamolotiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilgan bo'lsa, Zarnujiy ham ilm olish jarayonida axloqiy tarbiya, niyat pokligi va shaxsiy kamolotni ustuvor omillar sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, P.K.Hittining musulmon Sharqidagi ilmiy markazlar va madrasalarning ilmiy tafakkur rivojida o'rni haqidagi xulosalari tadqiqotimizda aniqlangan Movarounnahr ilmiy muhitining Zarnujiy pedagogik qarashlari shakllanishiga ta'siri haqidagi natijalarni tasdiqlaydi. J.M.Halstead tomonidan ilgari surilgan islom ta'limida bilim va tarbiyaning yaxlitligi tamoyili [7] ham Zarnujiy pedagogik konsepsiyasining mazmun-mohiyati bilan mos keladi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda allomaning pedagogik g'oyalari alohida tahlil qilinishidan tashqari, ushbu qarashlarning shakllanishiga ta'sir etgan tarixiy-madaniy muhit, hanafiylik mazhabining ma'rifiy an'analari hamda o'rta asr madrasalari faoliyati kompleks ravishda o'rganildi. Natijada Zarnujiy pedagogik merosining shakllanish omillari va uning zamonaviy pedagogik tamoyillar bilan bog'liqligi tizimli ravishda yoritib berildi.

XULOSA

Burhoniddin Zarnujiy o'rta asr islom pedagogik tafakkurining yirik namoyandalaridan biri hisoblanadi. Uning pedagogik qarashlari ilmning qadri, ta'lim motivatsiyasi, ustoz-shogird munosabatlari, axloqiy tarbiya va mustaqil ta'lim masalalarini qamrab oladi.

Tadqiqot natijalari alloma pedagogik merosining shakllanishida Movarounnahrning rivojlangan ilmiy muhiti, hanafiylik mazhabining ma'rifiy an'analari hamda madrasalar ta'lim tizimi muhim omil bo'lganligini ko'rsatdi. Shuningdek, Zarnujiy tomonidan ilgari surilgan pedagogik tamoyillar bugungi ta'lim tizimida yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini takomillashtirish, mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish va pedagogik hamkorlikni mustahkamlashda nazariy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupova M. Logopediya. – Toshkent: 2011.
2. Muminova L. Logopediya. – Toshkent: 2013.
3. Nurkeldiyeva D. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirish metodikasi. – Toshkent: 2021.
4. Usmonova O'. Talaffuz madaniyati. – Toshkent: 2020.
5. Djamolova L. Logopedik yordam va uning metodikasi. – Toshkent: 2018.
6. Shomahmudova R. To'g'ri talaffuzga o'rgatish va nutq o'stirish. Yordamchi maktablar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: 2013.
7. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: 2021.